

II bo'lim.
Kitob – aql qayrog'i





Berilgan so'zlarning birinchi bo'g'inidan yangi so'z hosil qiling va unga 3 ta ta'rif bering.

kiyik

toblandi



Siz darslikdan tashqari yana qanday kitoblar o'qiysiz?
Kitoblarni qanday o'qish kerak deb hisoblaysiz?

Kitobni qanday o'qish kerakligi bo'yicha har kimning tanlovi, didi, fikri turfa va o'ziga xos, ammo buni ham bilib qo'yish aslo zarar qilmaydi.

Kitob o'qish qoidasiga rioya etish shunchalik muhimmi? Mutolaa kitob varaqlashdan nechog'lik farq qiladi? Bu borada pedagog Mortimer Adlarning ayrim tavsiyalarini keltirishni joiz topdik. Keling, ayrim bosqichlarni ko'rib chiqamiz.

1. Kitob sarlavhasini o'qing, avra-astarini, orqa-oldini tekshiring. Kitobning birinchi sahifasini diqqat bilan ko'zdan kechiring.

2. Badiiy adabiyotlarga duch kelganda sarlavhalarni ko'zdan kechirib, yakuniy bobni sinchiklab o'qing.

3. Kitobdagi ayrim sharhlarni erinmay o'qib chiqing.

4. Tahlil qilishda eng avval muallif va u yozgan boshqa asarlar bilan biroz qiziqib ko'ring. So'ng birrov ko'z yugurtirib, satrlardagi ma'noni ilg'ab oling.

5. Mabodo, biror so'z, jumla yoki fikrga tushunmasangiz, qandaydir ma'lumot anglashilmay qolsa, darrov atrofda najot izlang: u xoh lug'at, ensiklopediya bo'lsin, xoh muallimingiz.


Shundan so'ng, quyidagi savollarga imkon qadar javob berib ko'ring:

1. Qo'limdagi kitob o'zi nima haqida?
2. Voqealar rivoji nimaga ishora qilmoqda?
3. Asar haqiqatga yaqinmi: butunicha yoki qisman?
4. Bu kitobning ahamiyati qanday? Menga nima beradi?

Asarni tugatgach, ozgina tanqidiy fikrlab, o'ylaganlaringizni boshqalar bilan baham ko'ring! Ishonavering, foydasini sezasiz.

Nihoyat, talabchan kitobxon darajasiga yetganingizda o'qish – bu savollarni to'g'ri tartibda berish va ularga javob qidirish bilan nihoyalaniadi.

Darvoqe, yana o'qish payti turfa qaydlar yozish, muddat va belgilar qo'yib o'qish ham ziyon qilmaydi. Barchasi sizning foydangizga ishlaydi...





1. Mutolaa deganda nimani tushunasiz?
2. Matndan kitob o'qishning qanday bosqichlari bilan tanishdingiz?
3. Bu bosqichlarning qaysi biriga amal qilasiz?
4. Talabchan kitobxon darajasiga yetish uchun nima qilish kerak?
5. Kitob o'qish qoidalariga yana nimalarni kiritgan bo'lardingiz?



avra-astari – narsalarning tashqi, sirtqi qavati



Matnda keltirilgan savollarni o'qing va unga javob bering.
Kitob mutolaa qilish bosqichlarini matndan topib o'qing.
Matndan qanday xulosa chiqarganingizni ayting.



Partadoshingiz bilan kitob o'qish uchun tavsiyalar ishlab chiqing.



Matnni o'qing. “Yaxshi kitobxon” mavzusida kichik matn tuzing.